



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQLAR VA YIG'IMLAR TIZIMI

Mualliflar: **Nuraliyeva Osiyo**

Mirzajanova Durdona

*Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti
talabalari*

Ilmiy rahbari: **G'oziyev Murodjon**

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur tezisdagi O'zbekiston Respublikasida soliqlar va yig'imlar tizimining huquqiy asoslari, tarkibiy tuzilishi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri keng yoritilgan. Soliqlarning davlat byudjetini shakllantirishdagi o'rni, tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun yaratilgan soliq yengilliklari, shuningdek, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi, shaffoflikni ta'minlash va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida olib borilayotgan ishlar o'rganilgan. Soliq tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar berilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishlari, tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi soliq yuki masalalari hamda soliqlarning byudjet barqarorligidagi roli yuzasidan xulosa va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, yig'imlar, soliq siyosati, soliq islohotlari, soliq ma'murchiligi, davlat byudjeti, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация: В данной диссертации широко освещены правовые основы, структура и влияние системы налогов и сборов в Республике Узбекистан на экономику страны. Проанализированы роль налогов в формировании



государственного бюджета, налоговые льготы, созданные для субъектов предпринимательства и населения, а также влияние налогов на социально-экономическое развитие. Также изучены проводимые реформы в налоговой системе Узбекистана, в том числе цифровизация налогового администрирования, обеспечение прозрачности и внедрение международного опыта. Даны научно-практические предложения по существующим проблемам повышения эффективности налоговой системы и их решениям. По результатам исследования были выдвинуты выводы и рекомендации по направлениям совершенствования налоговой системы Узбекистана, вопросам налогового бремени, влияющего на предпринимательскую деятельность, и роли налогов в стабильности бюджета.

Ключевые слова: налоговая система, сборы, налоговая политика, налоговая реформа, налоговое администрирование, государственный бюджет, экономика Узбекистана.

Kirish.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb tushuniladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuvni ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni "majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat" va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi.

Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga



(pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tengashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet larajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi javobgarligi va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Soliqlarga doir moliyaviy munosabatlarni yoritishda ularni tasniflash barcha turdagi soliqlarni guruhlariga ajratish orqali o'rganishni osonlashtiradi. Hozirgi paytda soliqlarning u yoki bu belgilari, xususiyatlariga qarab tasniflash tartibi amal qilib, soliqlarni tasniflash soliq to'lovchi va davlat o'rtasida soliqlarga doir bo'lgan moliyaviy munosabatlarga turli nuqtai-nazardan yondashishni talab etadi. Soliqlar xilma-xilligi sharoitida ularning farqli va o'xshash jihatlarini yoritgan holda to'g'ri tasniflash nafaqat nazariya uchun, balki amaliyot uchun ham zarurdir. Shunga asosan aytishimiz mumkinki, respublikamiz soliq tizimini o'rganishdagi yo'nalishlardan biri ularni to'g'ri tasniflash hisoblanadi. Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning ob'ektiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar



oliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo'lishiga (sub'ektiga), byudjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlariga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar-ning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to'g'ri va bilvosita soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlariga ajratib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruxlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruxlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1.Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.



2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi sub'ektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkka, yerga va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari korxonalar ho'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat)lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan bilvosita soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlari kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resruslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida soliqlar va yig'imlar tizimi davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo'lib, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish,



tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va davlat ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatda so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish, uni soddalashtirish va raqamlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, soliq yukining optimallashtirilishi, soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida elektron xizmatlarning joriy etilishi, shaffoflikni oshirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan islohotlar salmoqli natijalar bermoqda. Soliq ma'murchiligining takomillashtirilishi natijasida davlat byudjetining daromad qismi ortib, iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, soliq tizimining yanada samarali ishlashini ta'minlash uchun ba'zi muammolarni bartaraf etish talab etiladi. Jumladan, ayrim soliq turlari bo'yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish, soliq yuki bo'yicha tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, korrupsiya va sohadagi suiiste'molliklarning oldini olish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston soliq tizimini yanada rivojlantirish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish, soliq yukini maqbullashtirish, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish hamda soliqlarning byudjetga tushum hajmini oshirish yo'nalishlarida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish orqali soliqlarning yig'ilish samaradorligini oshirish va soliqqa tortish jarayonlarini avtomatlashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida soliq tizimini yanada takomillashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va fuqarolarning ijtimoiy farovonligini oshirishga erishish mumkin. Shu boisdan, soliq siyosatini izchil rivojlantirish va islohotlarni chuqurlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ***"Soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi farmoni. – 2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti: www.soliq.uz
4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari – Toshkent, 2023-yil.
5. Karimov U.X., Xalilov M.M. "Soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Abdullayev A.A. "Davlat byudjeti va soliq tizimi". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.